

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODIDA ALLA MOTIVI

Norkulova Shaxnoza Tulkinovna

TerDU katta o'qituvchisi

e-mail: norqulovashaxnoza8@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11077982>

Annotatsiya. Maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan an'anaviy she'riy janr – alla qo'shiqlarining shakllanishi va rivojlanishi, ayollar allalari va erkaklar allalarining o'ziga xos xususiyatlari, badiiyati bilan bog'liq mavzu atroflicha yoritilgan. Alla – jahon onalarining mehrga yo'g'irilgan muqaddas qo'shig'i ekanligi, “Haq qo'shiqlari”ning ijrolari xususida fikr yuritilgan.

Tayanch so'z va iboralar: alla, qo'shiq, surud, Alisher Navoiy, “Navogu”, “Uyqu”, Uyqumomo, “Huyalar”.

“ALLA” RADIATES MATERNAL KINDNESS, LYRICAL AND SOOTHING MELODIES.

Abstract. This article studies the formation and development of “Alla” songs, a traditional poetic genre widespread in Uzbek folklore, and examines the features and artistry of women's and men's lullabies.

Key words and phrases: Alla, lullaby, Alisher Navoi, “Navogu”, “Uyku”, Uyqumomo, “Khuyalar”.

“АЛЛА” ИЗЛУЧАЕТ МАТЕРИНСКУЮ ДОБРОТУ, ЛИРИЧЕСКИЕ И УМИРОТВОРЯЮЩИЕ МЕЛОДИИ.

Аннотация. В данной статье изучается становление и развитие песен “Алла” – традиционного поэтического жанра, широко распространенного в узбекском фольклоре, рассматриваются особенности и художественность женских и мужских колыбельных песен.

Ключевые слова и выражения: алла, колыбельная песня, Алишер Навои, «Навогу», «Уйку», Уйкумомо, «Хуялар».

Xalqimizning milliy koloritini belgilovchi xalqona qo'shiqlar uzoq tarixga ega. U xalq og'zaki ijodining lirik turiga kiruvchi eng ommaviy, xalqchil, sodda, keng tarqalgan, navobaxsh, faol turi hisoblanadi. Turkiy xalqlarning og'zaki ijodida insoniyat yaralgandan buyon qo'shiq janriga mansub asarlar borligi tarixiy manbalardan ma'lum. U XI qomusiy olimi M.Qoshg'ariyning “Devonu lug'atit turk” asarida ham o'z ifodasini topgan. M.Qoshg'ariyning “Devonu log'otut turk” ida “koshug”, Yusuf Xos Hojibda “qoshuq”, Haydar Xorazmiyda “qo'sh”, Mahmud Umar Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” asarida “qo'shiq”, Alisher Navoiy asarlarida “qo'shiq”, “surud”, “ayolg'u”, “lahn”, “turku”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”sida “qo'shiq” shaklida kelganini ko'ramiz¹. Alisher Navoiy ham Bobur ham xalq qo'shiqlarini nazarda tutganda “qo'shiq” terminini ishlatadi. Qolgan paytlarda “surud”

¹ Qarang: Махмуд Қошғарий .Девони луғотит турк. Тошкент. “Фан.”1967. – Б 376; Юсуф Хос Ҳожиб. “Қутадғу билиг. Нашрга тайёрловчи Қаюм Каримов. – Тошкент : Фан 1971. – Б.58; Алишер Навоий. Мезон ул авзон. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1967. –Б.180; Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома . Нашрга тайёрловчи: П.Шамсиев. –Тошкент: Юлдузча, 1989. –368 б.

yoxud boshqa bir atamani keltiradi². Turk folklorshunoslari ham O'rta Osiyo xalqlaridagi "qo'shiq" Turkiyadagi "qoshma" va "turku"lar bilan o'xshash ekanligini ta'kidlaydilar³.

Qo'shiqning muhim va mushtarak ezgu xususiyatlari asosan, beshik qo'shiqlari - mumtoz allalarda nomoyon bo'ladi. Inson bolasi dunyoga kelib, ilk bora eshitgan orombaxsh navo alla bo'lganligidan xalq og'zaki ijodi haqida gap ketganida, dastavval, shuurimizda onalarimiz aytgan allalar jonlanadi.

Beshikdagi bolajonni tinchlantirib, uyquga cho'mdiradigan bu qo'shiq katta-yu kichikning ruhiyatiga sokinlik, taskin va orom bag'ishlash xususiyati bilan ham sevimli xalqona ommaviy janr hisoblanadi.

Alla mumtoz nazariyotchilar talqinida turli shaklda kelgan. Xususan, so'z mulkining sultoni Hazrat Mir Alisher Navoiy "Alla" ni "Navogu" deb ataydi va shunday yozadi:

Ko'zining nozi eldin eltib uyqu

Anga uyqu keltirmakka navogu.

Darhaqiqat, alla hamisha o'zining navosi bilan yaraladi. "Alla" so'zining asli lug'aviy ma'nosi ham allalash, ovutib, avaylab uxlatish ma'nolaridan kelib chiqqan bo'lib, "uxla" so'zi bilan ma'no ohang jihatlaridan hamisha yonma-yondir.

Allalab uxlatish tabiiyki, kuylash jarayonida namoyon bo'ladi. Kuylashdan maqsad, avvalo, bolani uxlatish, uxlatish esa alla matnida jo bo'lgan emotsional ta'sirchanligidan kelib chiquvchi xususiyati bo'lib, bolani kuy og'ushida hayot bilan tinishtirish, ohanglar vositasida hayot ma'nosini anglashiga yo'l ochish, shu zaylda ma'naviyatini shakllantirish maqsadiga qaratilgan. Albatta allalarni kuylashdan maqsad qilib qo'yilgan bu ikkala muhim vazifani bajarish uchun avvalo, alla matnidagi obrazlar olami muhim ahamiyat kasb etadi. Ona allasida to'rt asosiy obraz bo'lib, bular: ona, bola, beshik va uyqu obrazlaridir. Bu obrazlar qay yosinda namoyon bo'lmasin, maqsadi bir bolani tezroq ovutish, allalab uxlatishdan iborat.

Alla bolam, alla-yo,

Uxlaydigan palla-yo,

Orom olsin erkatoy

Uxlab qolsin Qimmatoy.

Orom olib erkatoy

Kuchga to'lsin erkatoy.

Demak, orom beruvchi alla faqat uxlaydigan pallada aytiladi va unda onaning bolasiga atalgan ezgu tilaklari-yu, qalb qo'ridagi erkalashlari kuyga solib hirgoyi qilinadi; "uxlab qolsin", "orom olsin", "kuchga to'lsin", "qora kòzim", "shirin so'zim", "shirmoy yuzim", "erka qizim".

Aksariyat allalarda alla sozi to'g'ridan to'g'ri uyqu ma'nosida kelganligi kuzatiladi.

Men senga alla qilay

Alla qilib ovutay,

Men seni alla qilay

² Qarang: "Яна "қўшиқ" дурким, ярғуштак усулида шойиёндур ва баъзи адвор кутубида ул усул зикр бўлубтур". Мезон ул авзон. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1967. –Б.68;

³ Qarang: Fuad Ko'prulu. Edebiyat arastirmalari. – Istanbul: Otuken, 1989. – 114 b. Bundan tashqari Fuad Ko'prulu "Devonu lug'otut turk" ka suyanib qoshiqdagi kuy qadimda "kok" deyilganini va "kok" so'zining mavi, sema, dikis, ve sada ma'nolarda kelishini ta'kidlaydi. Qarang: Fuad Ko'prulu. Edebiyat arastirmalari. – Istanbul: Otuken, 1989. – 113 b

Kòtarib katta qilay.

Matndagi “alla qilay” ifodasi “uxlatay” ma’nosida keladi. Bola uxlagach, ovunib, orom olishi nazarda tutilyapti.

*Alla, allasi kelar,
Yotsa uyqusi kelar,
Orom olib uxlasa,
Amma-toğasi kelar,
Alla-yo, alla,
Uxla-yo, alla.*

Anglashiladiki, matndagi “allasi kelar” tushunchasi “uyqusi kelar” degan ma’noda kelgan. “Uyqu”- tòğridan-tòğri “alla” leksemasi bilan qayta nomlangan.

Ba’zi allalarda uyqu ramziy ma’noda ham jonlantiriladi. Unda Uyqumomo obraziga murojaat etiladi. Bu xalqimizning qadim-qadimlardan mavjud mifologik qarashlariga borib taqaladi. Unga kora, odamlar uyquni Uyqumomo ulashadi deb oylashgan va undan minnatdor bòlishgan

*Alla, allasi kelsin, alla-yo alla
Yotsa uyqusi kelsin, alla-yo alla
Yohud:*

*Romlar etsin oziga, alla-yo alla
Uyqu bersin kòziga, alla-yo alla*

Bunda, “allasi kelsin”, “uyqu bersin”, “orom olsin”, “rom etsin”, deb afsonaviy Uyqumomo nazarda tutilgan. Hatto xalq qoshiqlarida Uyqumomoning jonli tasviri ham yaratilgan:

*Huyya, huyyasi kelsin-o, alla,
Tovdan tuyasi kelsin-o, alla,
Tuyasiga mingashib-o, alla,
Uyqumomosi kelsin-o, alla*

Demak, momolarimiz Uyqumomoning toğlardan osha, qòngiroqli tuyada yetib keladi deb tasavvur qilishgan. Har bir obrazda ramziy ma’no yashiringan masalan, nega endi Uyqumomo oddiy hachirda yoki kopchilik xalq qahramonlari minadigan asov ayğirda emas, aynan tuyada kelgan? Negaki, tuya uzoq yòl bosishga bardoshli, juda sekin harakat qiladigan mudroq hayvon hisoblanib, uyqu obraziga mos. Tuyaning òrkachlari beshikning ikki chetidagi tutqich bezakka, ohista qadam tashlashi esa beshik tebranishiga mengzalgan. Qolaversa, onalar chaqaloqni beshikdan olayotganda:

*Uyqusi beshikda qolsin,
Dushmani eshikda qolsin*

deb aytar ekan, albatta, beshikning ustini yopib qòyishni unutmaganlar. Aks holda, bolaning uyqusi beshikdan chiqib ketadi yoki yovuz niyatli ins-jinlar ògìrlab qochadi. Shunday bòlgach, bola uxlay olmay yigìlaydi, xarxasha qiladi deb òylashgan. Aftidan shu mantiq taqozosiga kòra, beshik ustini aslo ochiq qoldirmaslik odat tusiga kirgan. Momolarimiz hech bòlmaganda beshik ustida biror mato bòlagi tashlab qòyishadi. Bu bilan bolani bezovta qiladigan oyingaroq jinlar beshikka kirmasin, bolaning uyqusi qochmasin, beshikka yotganda tiniqib orom olsin degan e’tiqodlarga amal qilishadi.

Ozbek xonadonlarida ròzgor yumushlari, bola tarbiyasi odatda kelinlar-onalar vazifasi hisoblangan. Shu sababli alla aytish mas'uliyati onalar va momolarning zimmasiga tushgan. Uyquni Uyqumomo qiyofasida tasavvur qilish ham shundan kelib chiqqan bòlsa, ehtimol. Aytish lozimki, chaqaloqni beshikka solish marosimini ham nuroniy buvajonlar bajarishgan. O'zlari gòyoki buni bilmaydigan qilib kòrsatishgan va beshik tòyga yigilgan bolajonlardan "sòrab òrganishgan". Bu bilan bolajonlar chaqaloq ukalariga yanada mehribonroq bòlishgan. Òzlarining sevimli beshiklarini mitti ukajonlariga "berishgan".

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari kattalar tomonidan bolalarga atab aytiladigan uyqu – ovutmachiq qo'shiqlarining bobolar tomonidan aytiladigan ko'rinishlari ham mavjud bo'lib, ular "Huyalar" deb ataladi. "Huya" bu O'zbekistonning janubiy viloyatlarida otalarning bolalarni erkalatish uchun aytgan qo'shiqlaridir⁴. Allalardan farqli tomoni uni faqat erkaklar ijro etadilar. Boshqacha qilib aytganda Huya –otalar allasi yoki bobolar allasi deyish mumkin. Huya aytish an'anasi o'zbek xalq og'zaki ijodida qadimdan mavjud bo'lib bugungi kungacha yaxshi saqlanib kelyapti. Bu haqida dastlab G'ozim Olim Yunusov 1926-yilda «Maorif va o'qitg'uvchi» jurnalining 4-sonida bosilgan «Allalar haqida so'z» maqolasida keltirib o'tgan edi. Hodi Zarif esa, G'.O.Yunusovning o'sha davrlardayoq huyalarning bir necha yaxshi namunalari yozib olganligi haqida guvohlik bersa-da, bu matnlar taqdiri hanuzgacha noma'lumligicha qolib kelayotir. Oqibatda bugunga qadar huyalarning allalardan farqli xususiyatlarini muayyanlashtirish e'tibordan chetda qolayotir. Buning yana boshqa bir sababi shundaki, allalar Xorazmda «hey», qoraqalpoqlarda «hey-hey» va turkmanlarda «huvdi» tarzida atalganidan istilohlar o'xshashligi yuzaga kelganligi tufayli folklorshunoslikda o'zbeklardagi allalarga iqrorlik va huyalarga ishtiboh bilan qarash oyinga aylangan. Holbuki, allalar ham huyalar ham o'zbeklar orasida qadimdan kuylanib keladi. Huyalarni, asosan, otalar va bobolar kuylaydilar. Ular chorvachilik bilan shug'ullanuvchi o'zbeklar orasida keng tarqalgan. Buni ularning mazmuni ham tasdiqlaydi:

*Huya, bolam, huyang qani?
Buvang bergan tuyang qani,
Buvang bergan tuyang bo'lsa,
Boqib yurganlaring qani?
Boqib yurgan tuyang bo'lsa,
Adiring-cho'llaring qani?
Huya, bolam, huya!
Huya, bolam, huya yo!*

Chindan-da, ayollar uy-ro'zg'or yumushlari bilan band bo'lgan paytda chaqaloqni ovutish, uxlatish erkaklar zimmasiga tushgan. Shunday kezlarda ular bolani tizzalariga olib, tebratish marosimiga mos ohangda huya (huyya) kuylab, bolaga uyqu chorlaganlar.⁵ Alla ham huyya ham bolani ovutish, joiz bo'lsa uxlatish maqsadida aytilgan.

⁴ O'zbek folklori.[Matn]: darslik/ T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo'rayev, J.Eshonqulov, A.Tilovov. – Toshkent: "MALIK PRINT CO" 2022. – 164 b.

⁵ O'zbek folklori.[Matn]: darslik/ T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo'rayev, J.Eshonqulov, A.Tilovov. – Toshkent: "MALIK PRINT CO" 2022. – 187 b.

Xullas, chaqaloqni beshikka solishdan boshlab, uni mudroq bosishi-yu, miriqib uxlab turishi, aytim aytib beshikdan olinishigacha bõlgan jarayonlarda uyqu obrazi allaning asosiy mohiyatini tashkil qiladi. Allalar odatda, bolaning beshikka solinishidan boshlab to uch - to'rt yoshlariga qadar aytiladi, to'rt – besh yoshlaridan esa ertak aytib uxlatiladi. Allalarning yosh bilan bog'liq xususiyatlari qat'iy bo'lib, bu o'ziga xoslik faqat beshik qo'shiqlarigagina xoslik kasb etgan. Ehtimol shu sababli ham onalar allasini ona suti bilan bog'lashgandir. Ha, allada ona sutining tiniqligi, pokizaligi bor. Bunga chaqaloqning mas'umlighi, pokligi, begunohligi, bezavollighi, musaffolighi va norasitalighi qo'shilib, allalar yana bir qadar muqaddaslashtirilgan.

Natijada allalar bora-bora “Haq qo'shiqlari” sifatida ilohiyashtirilgan.

Allaning oti Haqdir

Haqdan tilaklar ko'pdir.

Yetkazsa tilagimga,

O'lsam armonim yo'qdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, “Haq qo'shiqlari” – allalar onalarning, momolarning ezgu orzu –umidlarini, xohish – istaklarini, armonlarini, ko'ngil kechinmalarini o'zida mujassam etgan, mehrga yo'g'irilgan muqaddas qo'shig'i ekanligi bilan ham ahamiyatlidir.'

REFERENCES

1. Mahmud Qoshg'ariy “Devoni lug'otit turk”.T. “Fan.”1967. – B 376;
2. Yusuf Xos Hojib “Qutadg'u bilig” Nashrga tayyorlovchi Qayum Karimov. – T.: Fan 1971. – B.58;
3. Alisher Navoiy “Mezon ul avzon”. – T.: Badiiy adabiyot,1967. –B.180;
4. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” Nashrga tayyorlovchi: P.Shamsiev. –T.: Yulduzcha, 1989. –368 b.
5. Fuad Ko'prulu. Edebiyat arastirmalari. – Istanbul: Otuken, 1989. – 114 b.